INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.4 №5 (2026). MAY
innovativepublication.uz

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING MILLIY MADANIYAT VA TA'LIM SOHASIDAGI AHAMIYATI

Genjebaeva Dilnoza Bayrambay qizi
Innovatsion texnologiyalar universiteti tarix yo'nalishi talabasi Nukus, Qoraqalpog'iston, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu tezisda Turkiston va Qoraqalpog'iston hududidagi jadidchilik harakatining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy ahamiyati ko'rib chiqilgan. Maqolada Ismoil G'aspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev kabi jadid arboblarining xizmatlari tahlil qilinib, ularning ta'lim tizimini yangilash, milliy uyg'onish va yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, Qoraqalpog'istondagi jadidchilik harakati va Sayfulg'abit Majitovning ma'rifiy faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan.
Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatchilik, usuli jadid, milliy uyg'onish, Seyfulg'abit Majitov, ta'lim, madaniyat, yosh avlod tarbiyasi.

The Jadid movement and its significance in the field of national culture and education

Genjebaeva Dilnoza Bayrambay qizi
Student in the History Department at the University of Innovation Technologies Nukus, Karakalpakstan, Uzbekistan

Abstract: This thesis examines the emergence, developmental stages, and socio-political, cultural, and educational significance of the Jadid movement in the territory of Turkestan and Karakalpakstan. The article analyzes the contributions of Jadid figures such as Ismail Gaspirali, Mahmudkhodja Behbudi, Abdurauf Fitrat, and Fayzulla Khodjayev, revealing their role in updating the education system, national revival, and the upbringing of the younger generation. Special attention is also paid to the Jadid movement in Karakalpakstan and the educational activities of Sayfulgabit Majitov.
Keywords: Jadidism, enlightenment, method Jadid, national revival, Seyfulgabit Majitov, education, culture, upbringing of the younger generation.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev so'nggi yillarda jadidlar merosini o'rganish va ularning xotirasini abadiylashtirish bo'yicha qator muhim qarorlar qabul qildi. Bunda davlatimiz rahbari yaqinda Toshkentda o'tkazilgan "Jadidlar: milliy

o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi konferensiyada jahon ilm-fan va madaniy jamoatchiligi o‘rtasida katta qiziqish va e’tibor uyg‘otganini, bu ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish va kengaytirish kerakligini ta’kidladi.

Yana prezidentimiz jadidlar g‘oyasi - Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un deb aytib o‘tdi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida. Zero, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni barpo etishda buyuk ajdodlarimizning ilgari surgan g‘oyalari va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik taraqqiyotidagi hissasi va ta’sirini o‘rganish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, buyuk jadidlarimiz o‘z faoliyati doirasida nafaqat siyosiy masalalarni, balki ular ta’lim va tarbiyani takomillashtirish, Turkiston zaminida ma’naviy va ma’rifiy ishlarni hamda barkamol yosh avlodni tarbiyalash, ta’lim-tarbiya kabi ustuvor vazifalarni qo‘yadilar. Biz faxr bilan tilga oladigan ulug‘ jadidlarimizning faoliyati XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida amalga oshirilgan. Bunda jadidchilik harakatlari Turkistonda yangi uyg‘onish davrini boshlab beradi. Ya’ni, bu davrda jadid ma’rifatparvarlik maktablarining ochilishi, adabiyot va san’at sohalarining rivojlanishi, matbuot xizmatining yo‘lga qo‘yilishi aholining madaniy va ma’naviy hayotida tub burilish yasaydi. Keng tushunarli bo‘lishi uchun jadidchilikning ildizini jadid so‘zining ma’nosi bilan bog‘laymiz. Taniqli jadidshunos va professor Begali Qosimov o‘zining "Milliy uyg‘onish" nomli kitobiga jadid so‘ziga quyidagicha keng izoh beradi: Jadid so‘zining asl ma’nosi yangi deganidir, lekin bu shunchaki “yangi” yoki “yangi tarafdor” degani emas. Balki, bu atama aslida “yangicha fikrlash”, “yangi inson” “yangi avlod” kabi keng ma’noli atamadir. Jadidchilik harakatlari haqida fikr yuritilganda, “jadidchilik islomdagi ilm-fanni rag‘batlantirish, taraqqiyot va dunyoviylikning yangi davrdagi ko‘rinishi sifatida paydo bo‘ldi. Jadidlar esa, islomni har xil mutaassib yangiliklardan asrab hamda rivojlantirdilar” - deb S.Xolboyev o‘z fikrini bildiradi.

Jadidchilik harakatining vujudga kelishida hamda rivojlanishida katta hissa qo‘shgan qrimlik Ismoil Gaspiraliyning xizmatlari haqida aytishimiz kerak. Ismoil G‘aspiraliyni biz jadidchilik harakatining asoschisi deb ko‘rishimiz mumkin. Chunki Qrimda XIX asrning 80-yillarida, Rossiya istilo qilgan musulmon davlatlari orasida aholini savodli qilish maqsadida Ismoil G‘aspirali jadidchilik harakatlariga asos soldi. U dastlab “Tajrimon” (1883-1914) gazetasini turkiy va rus tillarida nashr ettirdi, “Yevropa madaniyatiga bir nazar muvozini” (1885) va “Rossiya musulmonligi” (1881)

asarlarini, shuningdek, jadid maktablari uchun asoslangan qo‘llanmalar va darsliklarni ishlab chiqdi. Uning asarlari Turkistonga tez sur’atlar bilan kirib keldi va natijada jadidchilik harakatlarining rivojlanishiga asos bo‘ldi.

Endi Turkistondagi yuzaga kelgan jadidchilik harakatlarining boshlanishi haqida so‘z etsak, bunda jadidchilik g‘oyasi Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarqala boshlaydi va XIX asrning 90-yillari - XX asrning boshlarida madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida shakllanadi. Jadidchilik harakatlari bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, bunda jadidchilik g‘oyasining paydo bo‘lishi va barqaror harakat sifatida keng yoyilishi hamda jadidchilik harakatining nisbatan qarshiliksiz va tez rivojlanishi, jadidchilikning demokratik va inqilobiy harakatlariga qarshi kurashi bilan xarakterlanadi. Turkiston o‘lkasida amalga oshirilgan jadidchilik harakatlariga Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonovlar birgalikda rahbarlik qilganlar. Xiva xonligida Pahlavoniyoz Yusupov, Buxorodagi jadidchilik harakatlariga esa Abdurauf Fitrat va Fayzulla Xo‘jayevlar rahbarlik qilganlar. Bu insonlar tomonidan Turkiston xalqi davlatini barpo etish, Turkiston jadidchiligidagi g‘oyaviy va nazariy yo‘nalishlarni ilgari surish, qolaversa zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan borish bo‘yicha bir qancha takliflar berilgan.

Yangilik xabarchisi degan nom olgan va 19 yoshida yetim qolib, tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘lida tarbiyalangan Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-1919-yillarda yashab o‘tgan, jadidchilik harakatlarining asoschisi, dramaturg va jamoat arbobi hisoblanadi. Behbudiy dastlab Samarqand, keyin Buxoro madrasalarida tahsil olib, 18 yoshida kichik tog‘asi bo‘lgan Odildan arab tilini o‘rganadi va qozixonada mirzolik qilgan. U yoshligidan Ismoil G‘aspiraliyning nashr etilgan jurnal va gazetalarini o‘qib, dunyoqarashini kengaytirib, shaxsiy mutolaa bilan shug‘ullangan. Behbudiy o‘zining bosmaxonasi va “Behbudiya kutubxonasi”ga asos solgan, 1913-yilda Samarqand shahrida “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini nashr etadi. U xalqning ko‘zini ochishda teatr muhim deb hisoblaydi va uning eng avval o‘zbek adabiyotidagi dramatik asari bo‘lgan “Padarkush” dramasining 1914-yil 14-fevralda Toshkentdagi “Kolizey” teatrida qo‘yilishi o‘zbek teatriga asos solingan sanaga aylandi va Turkistonda katta madaniy-ma’rifiy ishlarda eng muhim tarixiy voqea bo‘ldi. Behbudiyning ta’lim islohoti “usuli jadid” ya’ni yangi usul maktablarini tashkil etish va maktablar uchun darsliklar yozishdan iborat bo‘lgan.

Yana bir Turkiston jadidchilik harakatlarining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan jamoat arbobi Abdurauf Fitrat xalqning ilmiy va ma’naviy yuksalishiga katta e’tibor qaratgan. U 1886-1938 yillar oralig‘ida yashab o‘tgan, Buxoro jadidchiligi hamda “Yosh buxoroliklar” partiyasining ma’naviy rahbari bo‘lgan. Fitrat modernizatsiya va

mustaqillik, milliy uyg‘onish g‘oyalarini o‘z faoliyatining eng muhim jihatlari deb qaragan. Yangi usul maktablarini tashkil etish va ularni rivojlantirish, o‘quv darsliklarini yangilash kabi ma’rifiy faoliyatda muhim ishlarni amalga oshiradi. Bunda u “Oyna” jurnalida millat taraqqiyoti, ijtimoiy muammolar, ta’lim tizimi bo‘yicha maqolalar yozgan hamda "O‘zbek tili grammatikasi"da, ilmiy faoliyatida til masalalariga alohida e’tibor qaratgan. O‘zbek adabiyotida tarixiy drama janriga asos solib, “Arslon”, “Vose” va “Abulfayzxon” kabi asarlar keng jamoatchilikka mashhurdir. Islom dini asosida rivojlanish va turkiy xalqlar birligini saqlash, rus mustamlakachiligi sharoitida milliy mustaqillikni qo‘llab-quvvatlovchilar qatorida katta o‘rin egallagan Fitrat o‘zbek tili, san’ati va adabiyoti bilan bog‘liq masalalarda o‘z ijodi bilan xizmat ko‘rsatgan. U “Chig‘atoy gurungi” tashkilotiga rahbarlik qilib, Turkistondan 70 nafar buxorolik yoshlarni Germaniyaning bir qator oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborgan. 1929-yili Fitrat “professor” ilmiy unvonini oladi. Dastlab Sovet hokimiyati bilan hamkorlik qilgan, keyinchalik esa Sovet hokimiyati siyosatini tanqid qila boshlagan Fitrat 1937-yilda qatag‘on qurboni bo‘ladi.

Atoqli davlat va siyosat arbobi Fayzulla Xo‘jayev 1896-1938-yillarda yashab o‘tib, 1913-yilda jadidlar safiga qo‘shiladi. “Yosh buxoroliklar” partiyasining 1916-1920-yillardagi rahbarlaridan biri sifatida demokratik islohotlar uchun kurashgan. U milliy davlatchilikni mustahkamlash, o‘zbek xalqining iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti tarafdori bo‘lgan. Ma’rifatparvarlik faoliyatida yangi usul maktablarini ochish va “Yosh buxoroliklar” partiyasini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, yosh turkistonliklarni xorijiy oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborish kabi bir qancha xizmatlari bilan katta ahamiyatga ega. Fayzulla Xo‘jayev o‘zbek va rus tillarida 200 dan ortiq maqolalar va 16 ta kitob nashr ettirgan. U tarixchi sifatida Buxoro amirligining ag‘darilishi va jadidchilik harakatlari, milliy chegaralanish tarixini keng bayon etish maqsadida “Buxoro inqilobi tarixiga doir materiallar” va “Buxorodagi inqilob va O‘rta Osiyoning milliy chegaralanishi tarixiga doir” asarlarini yozadi, shu orqali o‘z asarlarida inqilobiy jarayonlar, feodal tuzum, iqtisodiy islohotlarning zarurati va milliy ozodlik harakatlarini tahlil qiladi. Fayzulla Xo‘jayevni xalq hayotini yaxshilash, ular ta’lim va o‘z mamlakatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlantirib, qoloqlarni yo‘q qilish maqsadida kuch va sog‘lig‘ini ayamagan davlat arbobi sifatida ko‘rishimiz mumkin.

XX asr boshlarida ma’rifatparvarlik ishlarini amalga oshirish, ijtimoiy-siyosiy islohotlar o‘tkazish va milliy o‘zlikni anglash asosida Qoraqalpog‘iston hududida ham jadidchilik harakatlari olib borildi. Bunda jadidchilik harakatlarida eng muhim vakillaridan Sayfulg‘abit Majitov, Jo‘lmirza Aymurzayev, Qosim Avezov va

Abdurahmon O‘tepov kabi shaxslar. Ular o‘z faoliyati natijasida aholining o‘zligini anglashiga, yoshlarga ta’lim berish, ularga dunyoviy bilimlarni o‘rgatish, yangi usuldagi maktablar va o‘qish uchun qulayliklar yaratishda, darsliklar va qo‘llanmalar yozib, aholini savodli qilishga katta xizmat qildi.

Bunda, Qoraqalpoq madaniyati va ma’rifatida fidoyilik bilan xizmat ko‘rsatgan, xalq ta’limida, matbuotning rivojlanishida o‘z hissasini qo‘shgan dramaturg Sayfulg‘abit Majitov haqida so‘z yuritish lozim. U dastlabki qoraqalpoq maktablarida birinchi qoraqalpoq alifbosini yaratib, ta’lim sohasiga o‘zining katta mehnatlarini qoldiradi va jadid ma’rifatchiligida ta’lim tizimini isloh qilishda faollik ko‘rsatadi. Qoraqalpoq adabiyotida bolalar uchun atab asarlar yozishda Sayfulg‘abit Majitov muhim o‘rin tutadi. Uning “Yoshlarga”, “Toza yil”, “To‘rt fasl”, “Foydasini bilish” va “Hunar bilim” kabi bolalarga atab yaratgan qo‘shiqlari bor. Tarixiy asarlaridan esa “Xarip eding”, “Bo‘lib o‘tdi” nomli tarixiy qo‘shiqlarini yaratgan. Undan tashqari Sayfulg‘abit Majitovning dramatik asarlaridan “Bog‘dagul”, “Ernazar Alako‘z”, “So‘nggi selten” kabi pyesalari mashhur. U o‘z ijodi orqali xalqning turmush tarzini, og‘ir siyosiy vaziyatlarni va ijtimoiy muammolarni keng yoritib bergan. Bugungi kunga kelib esa, ma’rifatparvar, dramaturg, qoraqalpoq adabiyotida buyuk shoir Sayfulg‘abit Majitovning merosi biz yoshlar uchun eng qimmatli boylik va yoshlarimizga ibrat bo‘ladigan ulug‘ shaxs hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, biz faxr bilan tilga oladigan jadidlarimiz va ularning amalga oshirgan jadidchilik harakatlari bugungi yosh avlod ta’lim-tarbiyasida, ularning o‘zligini anglashida, milliy davlatchiligimizda, ma’naviy va ma’rifiy taraqqiyotimizda ulkan omildir. Har qanday og‘ir sharoitlarga qaramasdan yosh avlodni tarbiyalash yo‘lida o‘z jonlarini fido qilgan jadid bobolarimizning jasoratini doimo ulug‘lash kerak. Zero, bu jadidlar o‘z faoliyati davomida ma’naviy va ma’rifiy ishlarni amalga oshirib, milliy o‘zlikni anglash, xalqni ma’rifatli qilish, asosiy kuch hisoblangan yoshlarni chet ellarga o‘qitib, ularning fikrini va o‘z qarashlarini keng jamoatchilikka yetkazishda faol harakat qildi. Zero, hozirgi kunda mustaqil mamlakatimizda jadidlarimizning g‘oyalari, ular ilgari surgan fikrlar Yangi O‘zbekistonni barpo etishda va uning strategik tamoyillari bilan hamohangdir.